

Date: 23<sup>rd</sup> December-2024

**OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI BOLALAR TARBIYASI VA MA'NAVIY  
RIVOJLANISHIGA TA'SIRI**

**Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi**

International school of finance technology and science instituti

Katta o'qituvchisi

**Erkinova Dilbar Nuriddinovna**

International school of finance technology and science instituti

"Boshlang'ich ta'lism" yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqola ommaviy axborot vositalarining bolalar ma'naviyatiga ta'siri, uning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, mavjud muammolar va ularning yechimlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqola ota-onalar, pedagoglar, psixologlar va ta'lism tizimi mutaxassislari uchun foydali bo'lib, bolalar ma'naviyatini himoya qilish va rivojlantirish borasida amaliy ko'rsatmalarini taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** axborot, ta'lism, OAV, jamiyat, internet, maktab, til, xulq-atvor

Zamonaviy dunyoda ommaviy axborot vositalari (OAV) bolalar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar, video o'yinlar va bosma nashrlar yosh avlodning ma'naviy rivojlanishi va dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo'lib, muammo va yechimlarni chuqur tahlil qilish zaruriyati tug'iladi. Odamzod yaralibdiki, ularning hayotida axborot qanday turda va mazmunda bo'lishidan qat'iy nazar birlamchi ahamiyat kasb etgan va aynan shu xususiyati jihatidan axborotga bo'lgan talab bugun ham o'z dolzarbligini yoqotmagan. Davriylik dolzarblik va tezkorlik esa ta'limi tarraqqiyot bilan tengma-teng odimlab boraveradi. Avallari texnika rivojlanishidan oldin og'izaki ko'rinishdagi axborotlar ko'proq tarqatilgan, bo'lsa keyinroq bu yozma shakillarga ko'chdi. Bora-bora texnika rivojlanishi oldimlab ketgani tufayli, kitob, gazeta, radio, televedenie va internet kabi axborot vositalari o'z kuchini jadallik bilan aks ettira boshladidi. Hozirda 21-asr texnologiyalar asri der ekanmiz ta'likidlab o'tishimiz joizki, talimiy taraqqiyotni shakillantirishda bolalarga axborot vositalaridan to'g'ri yo'lda foydalanishni turli xil saytlarga ruxsatsiz kirmasliklarizi uqtirib o'rgatish biz pedagoglarni zimmasida.

Shu nuqtai nazardan qaraganda har qanday turdag'i ommaviy axborot vositasi jamiyat a'zolarining ongu shuuri, dunyoqarashi, fikrashi, umumiylar qilib aytganda, ma'naviy olamini shakllantiradi, rivojlaniradi. Bugun har tomondan bizni egallab olayotgan axborotlar oqimidan o'zimiz uchun zarur bo'lgan xolis axborotni tanlab olish esa teran fikrlash va chuqur tafakkurni talab qiladi. Ommaviy axborot vositalari bola manviyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular orqali bolalar turli xil g'oyalar, axloqiy qadriyatlar va jamiyatning normativlari bilan tanishadilar. Ommaviy axborot vositalarida tarqatiladigan kontent bolalarning dunyoqarashini shakillantiradi. Musbat yoki salbiy ma'lumotlar, axloqiy va estetik qadriyatlar bolalarning ichki dunyosiga ta'sir qiladi.

**PROBLEMS AND SOLUTIONS AT THE STAGE OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF  
SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY.**  
**International online conference.**

Date: 23<sup>rd</sup> December-2024



Ommaviy axborot vositalari ko'rsatadigan personajlar va qahramonlar bolalar uchun rol model bo'lib xizmat qiladi. Ular o'zlariga xos xulq-atvor va qadriyatlarni qabul qilishadi. Ommaviy axborot vositalari ko'p vaqt sariflash bolalarning an'anaviy ta'lif va ijtimoiy faoliyatlarini kamaytirishi mumkin. Shu bois, ota-onalar va pedagoglar bolalarning media iste'molini nazorat qilib, ularga sifatli va tarbiyaviy axborottaqdim etishlari zarur.

O'zbekiston maktablarida ommaviy axborot vositalarining roli va tasiri muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari ta'lif jarayonida quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi. Ommaviy axborot vositalari o'quvchilarga yangiliklar, ilmiy maqolalar va turli tadqiqotlar orqali keng qamrovli axborot taqdim etadi. Maktabda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o'quvchilarni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlaydi va ularni tadqiqotchilik ruhida tarbiyalaydi. O'quvchilarga axborot va media resurslarini tanalash, tahlil qilish va baholashni o'rgatish muhimdir. Bu ularning tanqidiy fikirlash qobiliyatini oshiradi. Ommaviy axborot vositalari orqali bolalar va o'smirlar o'z fikrini bildirish, ijodiy ishlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lardilar. Ommaviy axborot vositalarining tarbiyaviy ta'siri aks ettirilgan axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy masalalar bolalarning ruhiy va axloqiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, maktablarda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni tashkil etish va ularni tarbiyaviy maqsadlarda qo'llash muhim ahamiyatga ega. OAV bolalarning nafaqat ma'naviy dunyoqarashi va urf-odatlari tizimiga, balki kiyinish madaniyatidan tortib milliy so'zlashuv tili taraqqiyotigacha ta'sir qiladi. "Radio va televidenie tili butun mamlakat fuqarolari tilining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Radio efirda yoki televidenieda yangagan yangi so'zlar va iboralar tez kunda hammaga tarqalib, modaga aylanib ketadi. Bu esa teleradio jurnalistlar tiliga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Bir so'z bilan aytganda, axborotning insoniyat hayotidagi o'rni va ahamiyati mutlaqo o'zgacha tus olayotgan bir sharoitda OAV ning millat va davlat manfaatlariga xizmat qilish va fuqarolar ongini shakllantirishdagi to'laqonli faoliyatiga doir taklif va xulosalar ishlab chiqish bugun fan oldida o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kiradi. Ommaviy axborot vositalarining bola manaviyatiga ham salbiy ham ijobiy taraflama foya va zararlari mavjud ekan. Hozirgi zamon yoshlari texnologiya va internetdan foydalanib ko'plab uyga vazifalarni bajarishmoqda va qo'shni mamlakata yoshlari orasida muloqot o'rnatib do'stlashmoqda desak ham mubolag'a bo'lmaydi. XVI asr der ekanmiz texnologiyasiz kundalik hayotimizni tessavvur eta olmaymiz. Bugungi kunda bu zamon talabi desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

#### REFERENCES:

1. Hasanov, M. Axborot xavfsizligi va yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi. Toshkent: Ma'naviyat. 2018
2. Vohidov, I. Zamonaviy OAV va yoshlar ongiga ta'sir masalalari. Toshkent: Fan va texnologiya. 2017

Date: 23<sup>rd</sup> December-2024

3. Murodjon Oktam og, F. (2023). OILADA KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR. Journal of new century innovations, 27(2), 46-49.
4. Olimjonova, Z. B. Q., Ilhomov, S. O. O., & Anorboyeva, J. S. Q. (2023). JAMOADA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YOLLARI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 235-238.
5. G'ayratovich, K. B., & Mirzohidovich, M. M. O. (2023). XOTIRA RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI. Journal of new century innovations, 27(2), 54-57.
6. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). PSIXOLOGIYADA ONG VA ONG HAQIDAGI NAZARIYALAR. Scientific Impulse, 1(8), 857-860.
7. ABDUSAMATOV, X. (2024). OILALI TALABALARDA AJRIM HOLATI YUZAGA KELISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 70-74.
8. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). МЕХНАТ МИГРАНТЛАРИ ОИЛАЛАРИДАГИ ХАЁТ МАЗМУНИНИНГ ЙЎНАЛГАНЛИК ҲОЛАТИ. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 663-670.
9. Xudaybergenovich, A. X., & Baxtiyarovna, S. D. (2024). FARZAND TARBIYASIGA OILAVIY AJRALISHLAR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIRINI EMPIRIK O'RGANISH YUZASIDAN TADQIQOT XULOSALARI. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(5), 73-82.
10. Baxtiyorovna, S. D. (2023). SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY QARAM XULQ-ATVOR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(9), 22-27.